

INGLIZ BOLALAR ADABIYOTINING YANGI DAVRI

Mamarasulova Shoiraxon Maxammad qizi*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti**mustaqil (PhD) izlanuvchisi**Shoira-uz@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz bolalar adabiyotining XVIII asrdan XXI asr boshlarigacha bo‘lgan rivojlanish jarayoni ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalik konsepsiyasining adabiyotdagi talqini, romantizm davrida bolalik obrazining mustaqil estetik hodisa sifatida shakllanishi hamda XX asrda fentezi janrining yetakchi mavqega chiqishi yoritiladi. J.R.R. Tolkien, C.S. Lewis va J.K. Rowling ijodi misolida fentezi janrining bolalar tafakkuri, axloqiy qadriyatlari va estetik didini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Maqola ingliz bolalar adabiyotining jahon adabiy jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: ingliz bolalar adabiyoti, bolalik konsepsiyasi, fentezi janri, romantizm, J.R.R. Tolkien, C.S. Lewis, J.K. Rowling.

Ingliz bolalar adabiyoti jahon adabiyoti rivojida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshiga kelib ingliz bolalar adabiyotining yangi bosqichga chiqishini belgilab berdi, chunki bu asrda bolalar adabiyoti faqat ma’rifatparvarlik va didaktik maqsadlarni ko‘zlamay, bolalar dunyoqarashini va hissiy olamini chuqurroq aks ettirishga intildi.

Bu davrda bolalar adabiyotida fentezi janri yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi. Masalan: C.Lewisning “Narniya yilnomalari” turkumi bolalarga mo‘ljallangan ajoyib fantaziya olamini yaratdi.

J.R.Tolkin o‘zining “Hobbit” va “Uzuklar hukmdori” asarlari bilan yosh o‘quvchilarni fantastik olamga jalb etdi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, XVIII asrda yangi bolalik obrazining shakllanishi, madaniyatning barcha sohalarida bolaga nisbatan qiziqishning ortishi, bolalar va kattalar dunyosining xronologik va ongli ravishda yanada aniq ajralib ko‘rinishi, shuningdek, bolalikning ijtimoiy va psixologik ahamiyatining tan olinishi belgilab berilgan. XVIII asrda bolalik mavzusi asosan poetik shaklda ifodalangan bo‘lsa, keyingi asrlar davomida bu mavzu poetik markazdan chetga chiqdi va yangi shakllarda taraqqiy etdi. Bu davrda ingliz adabiyotida bolalarga ma’lum darajada qiziqish uyg‘onganligini aytib o‘tish lozim, ammo ular ko‘p hollarda nasriy asarlar bo‘lib, asosan, tarbiyaviy xarakter kasb etgan. Bu “Aql saltanati”ni o‘rnatish uchun bo‘lgan kurash, tarbiya va umuman ma’lumot olishga bo‘lgan kuchli e’tibor bilan bog‘liq. Bolalar mavjud bo‘lgan kitoblar – bu ko‘pincha faqatgina bolalarga qaratilgan

emas, shuningdek, ular bolalarning tarbiyachi-o'qituvchilari uchun ham dastur hisoblangan. Bu jarayonda bolalik davrining mazmun-mohiyati ham o'zgaradi – “Bu yengib o'tish, o'zgartirish kerak bo'lgan yoshdir... Boladagi bolalik – bu to'siq. Puritan an'analarida bu – qiyin, Lokk an'analarida – yengil” [3, 16].

Romantizmning – keyingi davrdagi xizmati – endi bolalik hayotning tayyorlanish davri yoki meyoridan ortiq chekinishi deb hisoblanilmasligi, romantiklar bolalikni xuddi butunlay mustaqil, takrorlanmas, muhim va bebaho dunyodek his qilishgan.

Klassisizm uchun ulg'ayish meyor bo'lgan bo'lsa, bolalik yillari esa – undan chekinishdir, unda romantiklarga asosan boshqacha yoshlar o'rtasidagi nisbat xarakterlidir: ulg'ayish og'riqli davr, bolalik esa – inson hayotining ideal davri hisoblanadi. Shunga bog'liq romantiklarning tarixga, ayniqsa, folklorga qiziqishini eslaylik. Rassomlar uchun bu yo'nalishning eng ommalashgan janrlardan biri o'zining negizida xalq og'zaki ijodida ko'tarilgan ertaklar (Arnim va Brentano, aka-uka Grimmlar, Gauff, Andersen va boshqalar) bo'lganligi bejiz emas. Shunday qilib, romantizm estetikasida bolalik – nafaqat bir shaxsning bolaligi, balki umuman insoniyatning bolaligi juda katta ahamiyatga ega bo'la boshlaydi [1, 98].

Adabiyotning rivojlanishi bilan unda XIX asr boshida yetuk shaxsning ichki kamoloti ko'proq ta'kidlangan. I.S.Konning yozishicha, bu “dunyoning sivilizatsiyasi”, ayniqsa, XVII – XVIII asrlarda shiddatli rivojlanishni boshlagan bo'lib, inson hayotining ko'plab sohalarida namoyon bo'lgan. Din nuqtai nazaridan gapiradigan bo'lsak, unda protestantizm xudo bilan muloqotga chiqish yanada individual – shaxsiy xarakterga ega bo'ladi, piyestistlar fikricha, XVII-XVIII asrlarda xudo individual suhbatdosh va hattoki, do'stga aylanadi. Shunga o'xshash holatlarni din tarixida ham uchratish mumkin: eski ingliz tilida “self” morfemasi o'z ichiga olgan so'zlar faqatgina o'n uchta bo'lgan bo'lsa, XVIII asrning ikkinchi yarmida ularning soni keskin oshadi; xuddi shu yuz yillikda ichki ruhiy holatlarni, kayfiyatni, kechinmalar va boshqalarni anglatadigan so'zlar keng tarqalgan.

XX asr o'rtalaridan boshlab ingliz bolalar adabiyotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Psixologiya va bolalar tarbiyasiga oid tadqiqotlar ta'sirida bolalar adabiyoti yanada xilma-xil bo'lib, unda murakkab mavzular (do'stlik, sevgi, xatolar va hayot sinovlari) ham yoritila boshlandi.

“XX asr Angliya bolalar adabiyoti haqida so'z yuritadigan bo'lsak, unda fentezi janri boshqa janrlardan ko'ra sezilarli darajada ustunlik qilganini ko'rishimiz mumkin. Fentezi (inglizcha “fantasy” – fantaziya) – fantastik adabiyot janri bo'lib, mazkur janr talablariga ko'ra, voqea – hodisalar biz yashaydigan “real” dunyodan butunlay farq qiladigan sehrli dunyoda sodir bo'ladi. Bu “ikkilamchi” dunyoning o'z qonun-qoidalari mavjud bo'lib, ular oddiy mantiq va tabiat qonunlariga to'g'ri kelmaydi. Uning ilmiy fantastikadan farqi shundaki, fentezi janrida voqealar sodir bo'ladigan dunyoning qonun-qoidalari ilmiy jihatdan tushuntirilmaydi” [8, 421]. Zamonlar

oʻrning almashishi va har bir orzu qilingan turli hayoliy qirolliklar fantaziya olamida tez-tez sodir boʻladigan voqea-hodisadir. Qahramonlar bu xayoliy dunyoga turli yoʻllar orqali oʻtishlari mumkin: uxlab qolib yoki tush koʻrayotib, quyon uyasiga tushib ketib (“Alicia in Wonderland” – “Alisa moʻjizalar mamlakatida”), shkaf orqali (“Narniya saltanati” – “The chronicles of Narnia”), loviya poyasiga tirmashib (“Jek va loviya poyasi”) yoki tornado quyuniga tushib qolib va hokazo. Shuningdek, bu gʻayrioddiy dunyo oddiy dunyoning koʻz ilgʻamas, yashirin qismi boʻlib, unda sehrli va gʻayritabiiy kuchlar (kelajakni bashorat qilish, hayvonlar va ruhlar bilan suhbatlashish, inson qiyofasidan boshqa mavjudot qiyofasiga oʻta olish va hokazo) mavjudligi bilan ham ajralib turishi mumkin. Ushbu yoʻnalishning oʻziga xosliklaridan hisoblangan fantastik olamda gʻayrioddiy hayvonlar ham uchrab turadi (gapiruvchi narsalar va hayvonlar, fantastik jonzotlar, ritsarlar, jodugar-u afsungarlar, hayvon-odamlar, elflar, arvoqlar, ajdarholar va shunga oʻxshash boshqa mavjudotlar).

Taʼkidlash kerakki, fentezi janri adabiyotning uzoq tarixi davomida uning koʻplab ichki janrlari kabi shakllandi, uning bolalar adabiyotiga xos boʻlgan asosiy subjanrlari esa quyidagilar:

- 1) hayvonlar va oʻyinchoqlar fentezisi;
- 2) gʻayrioddiy va afsonaviy kuchga ega boʻlgan obrazlar fentezisi;
- 3) epik fentezi;
- 4) yumor asosiga qurilgan fentezi;
- 5) dahshatli hodisalarni aks ettiruvchi fentezi [8, 421].

Badiiy adabiyotning ushbu janri boshqa janrlarga oʻxshab, kundalik hayotning tashvishlaridan qutulish, ularni unutish va hayotning turli talqinlarini qidirishda yaxshi vosita sanaladi. Aytish joizki, baʼzi fentezi janri asarlari aql bovar qilmas sarguzashtlarning shunchaki ketma-ketligidan iborat boʻlsa, baʼzilar hayotning eng chuqur falsafiy tomonlarini ham koʻrsatib beradi. Piers taʼkidlab aytganidek: “Fentezi uni yozadigan va oʻqiydiganlarga tarixdan olingan eng kuchli gʻoyalar, qahramonlar va voqealarni boshqa kontekstga qoʻyib, alohida elementlari oʻzgartirilganda uni qanday fosh qilishlarini koʻrish imkonini beradi” [2, 102].

“Fentezi janrining sifatli, eng yaxshi namunalari bolalarning tasavvuri va ijodkorligini oshirishda ularning eng yaxshi mashgʻulotlaridan biri sanaladi. Shuningdek, ular jiddiy axloqiy fazilatlarini ham oʻzida mujassam etadi: ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash, doʻstlarga sadoqat, qaror qabul qilish masʼuliyati, shaxsiy burch va vazifalar fentezi asarlarida eng koʻp uchraydigan mavzular boʻlib kelgan.

Taʼkidlash lozimki, fentezi janri uzoq tarixga ega boʻlib, uning ildizlari grek-rim mifologiyasiga borib taqaladi. Xususan, Homerning “Odissey” epopeyasida ham mazkur janrning ilk xususiyatlari namoyon boʻladi [8, 422]. “Qadimgi ingliz epik poemasi “Beovulf”, oʻrta asr ritsarlik afsonalaridan biri boʻlgan “Qirol Artur haqidagi afsona”, Shekspirning “Boʻron” tragikomediyasi, Jonatan Sviftning “The Gulliver’s

Travels (“Gulliverning sayohatlari”, 1726), Lyuis Kerrolning “Alisa mo‘jizalar mamlakatida” asarlari fentezi janri xususiyatlari Britaniya adabiyotida ham asrlar davomida shakllanib kelganidan dalolat beradi” [2, 99].

“Fantastik adabiyotning mustaqil janri sifatida fentezi XIX asrda shotlandiyalik yozuvchi Jorj Makdonald ijodi bilan ajralib chiqa boshladi. Uning kelt motivlari asosida yozgan “Phantastes: A Faerie Romance” asarida yosh yigitning ertak mamlakatga borib, u yerda turli sarguzashtlarni boshidan kechirib, uyga qaytishi haqida hikoya qilinadi. Janrning keyingi rivojiga Uilyam Morris o‘zining antik va o‘rta asr mavzulari yoritilgan epik poema va romanlari bilan o‘z hissasini qo‘shdi. Yozuvchi Morris tomonidan yaratilgan shriftlar to‘plami va kitob sahifalarga turli bezaklar berish fentezi janridagi romanlarning chop etilishda o‘ziga xos noshirlik madaniyatni vujudga keltirdi. XX asrda Jorj Makdonald va Morris boshlab bergan an’anani Edvard Danseni davom ettirdi. Uning “The king of Elfland’s daughter” (“Elflar qiroli qizi”) romani qadimgi kelt afsonasi asosida yaratilgan bo‘lib, unda yerda yashovchi qirol va qorong‘u elflar mamlakati malikasining muhabbati haqida hikoya qilinadi.

XX asrning 20-yillariga kelib, fantastik reallikni ko‘rsatishda til vositalarining roli oshdi. “Lingvist va qadimgi tillar o‘qituvchisi Erik Edison o‘zining “The Worm Ouroboros” (“Uroboros chuvalchangi”, 1922) asarida qadimgi ingliz tili uslubini qo‘llaydi. Keyinroq Jon Ronald Tolkin ham uning usulini qo‘llab, asarida o‘zi yaratgan “o‘rta yer” dunyosining “ishonarliligini” isbotlash uchun o‘rta asr ingliz tilidan foydalanadi.

XX asrning o‘rtalariga kelib, janrning xususiyatlari qamrovi kengaydi, bunda, ayniqsa, Tolkinning adabiy jarayondagi xizmatlari beqiyos. Uning yer markazidagi xayoliy dunyosida sodir bo‘ladigan voqealar tasvirlangan “Hobbit” (1937) va “Uzuklar hukmdori” (1954-1955) roman-epopeyasi fentezi hamda ushbu janrda ijod qiluvchi bolalar adabiyoti yozuvchilari uchun kuchli turtki bo‘ldi. Ushbu asarlar nafaqat bolalar adabiyotining, balki fentezi janrining ham keyingi rivojlanish yo‘lini belgilab berdi” [8, 423].

1997-yilda ingliz yozuvchisi Joan Rouling o‘zining fentezi janrida yozilgan “Garri Potter va falsafa toshi” asarini nashr etdi. Ushbu asar tezda katta mashhurlikka erishdi va butun dunyo bo‘ylab millionlab o‘quvchilarni o‘ziga jalb qildi va bolalar adabiyotidagi eng shov-shuvli hamda eng ko‘p tillarga tarjima qilingan asarlardan biri bo‘ldi. Bugungi kunga kelib asar yetmish beshdan ortiq dunyo tillariga tarjima qilindi, shu jumladan, o‘zbek tiliga ham mahoratli tarjimon Shokir Dolimov tomonidan (rus tili orqali) tarjima qilindi. Garri Potter fenomeni butun olamga tarqaldi va mashhur bo‘ldi.

Jahonda axborot texnologiyalar va ilm-fan ma’lum darajada rivojlanib bolalar va o‘smirlar kitob mutoalaasidan uzoqlashgan bir paytda nashr etilgan Joan Roulingning ushbu asari bolalarni yana kitobning sehrli olamiga qaytardi. “O‘n bir yoshli sehrgar

bola Garri Potterni sehrgarlik va afsungarlik maktabi Hogvartsdagi sarguzashtlarini butun dunyo bolalari qiziqish bilan qarshi oldi va o'qib chiqishdi. Bunga o'xshash voqea-hodisa tasvirlangan asarlar Meri Frensis Zembreno va Diana Uins Jons kabi fantezi janridagi yozuvchilar tomonidan ham yaratilib, omma e'tiboriga taqdim qilingan bo'lsa-da, ularning hech biri Joan Rouling asaridek kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'la olmadi" [2, 165]. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib ham ma'lum ma'noda Roulingning ko'magi bilan fantezi janri hamon bolalar adabiyotida yetakchi janrlardan biri bo'lib kelmoqda.

Butun dunyoga "Garri Potter va falsafa toshi" asari bilan tanilgan va mashhur bo'lgan Joan (Joanna) Ketrin Rouling 1965-yil 31-iyulda Angliyaning Glostershir shahrida samolyotsozlik muhandisi Piter Jeyms Rouling va Anna Roulinglar oilasida tug'ilgan.

Rouling ilk ta'limni abolitsionizm tarafdori Uilyam Vilberfors va ta'lim islohotchisi Hanna Mor tomonidan tashkil etilgan muqaddas Maykl boshlang'ich maktabida olgan. Maktab direktori Alfred Dan "Garri Potter" asaridagi Hogvarts – sehrgarlik va afsungarlik maktabi direktori Albus Dambldor roli uchun prototip bo'lgan degan fikrlar ham bor [6, 22].

Rouling hikoyalar yozishni bolaligidan boshlagan edi. U yozganlarini o'zining singlisiga o'qib berardi. "Haligacha singlimga uning quyon uyasiga tushib ketgani va u yerda quyonlar oilasi uni qulupnay bilan mehmon qilgani haqidagi hikoyani so'zlab berganimni eslayman. Mening eng birinchi yozgan hikoyam (o'shanda besh yoki olti yoshda edim) Quyon haqida edi. Bu quyonga qizamiq toshadi va Miss Bi (Ari xonim) nomli bahaybat ari bilan boshqa do'stlari uni ko'rishga kelishadi" [9, 3].

Roulingning hayotiga katta ammasining ta'siri katta edi. Uni mumtoz filologiyani sir-asrorlaridan xabardor qilgan va uni doim bilimga chanqoqlikka undagan ham katta ammasi edi. Unga katta ammasi Jessika Mitfordning avtobiografik asari "Hons and Rebels" ("Ulug'lar va inqilobchilar")ning eski nusxasini sovg'a qiladi. Ushbu asarni o'qiganidan so'ng, Mitford Rouling uchun qahramonga aylanadi va u yozuvchining barcha asarlarini birma-bir o'qib chiqadi.

Rouling o'zining "New Yorker" gazetasi muxbiri bilan bo'lgan suhbatida bolalik va o'smirlik yillarini eslab, shunday degan: "Men o'zimni baxtli his qilmaganman. O'ylashimcha, o'sha yillar hayotimning eng ko'ngilsiz davri bo'lgan" [9, 3]. Bunga sabab o'sha davrda onasining xastaligi va otasi bilan munosabatlaridagi muammolar uning oilaviy hayotini qiyinlashtirib yuborgan edi.

"1982-yilda Rouling Oksford universitetiga kirish imtihonlarini topshiradi, ammo omadi kelmay o'qishga kira olmaydi. Shundan keyin Ekseter universitetiga o'qishga kirib, fransuz tili va mumtoz filologiya yo'nalishi bo'yicha tahsil oladi. Parijda bir yil davomida tahsil olib qaytgach, 1986-yilda Rouling Ekseter universitetini tugatadi. Keyin esa Londonga kelib, Xalqaro amnistiya tashkilotining tadqiqot bo'limiga kotiba

bo‘lib ishga kiradi” [9, 4].

1990-yilda Rouling Manchestr shahriga ko‘chib o‘tadi. Aynan shu yili u Manchestrda Londonga yo‘l olgan poyezdda safar qilayotgan chog‘ida, sehrgarlik maktabida tahsil oluvchi o‘smir yigit haqida hikoya yozish g‘oyasi xayoliga keladi. Yozuvchi bu ilhom manbai haqida “The Boston Globe” jurnalining jurnalisti Stefani Loerga bergan intervyusida quyidagicha izoh beradi: “To‘g‘risi, bu g‘oya menga qayerdan kelganini bilmayman. Avvaliga Garri obrazi, keyin esa boshqa barcha qahramonlar va voqealar tasviri birma-bir ko‘z o‘ngimdan o‘ta boshladi” [7, 4]. Rouling o‘zining rasmiy veb-saytida “Garri Potter” asarining yuzaga kelishi haqida quyidagicha fikrlarni ifoda etadi: “Men yolg‘iz o‘zim yo‘lovchi to‘la poyezdda Londonga ketayotganimda, to‘satdan Garri Potter g‘oyasi xayolimga keldi. Olti yoshimdan buyon yozish bilan muntazam shug‘ullangan bo‘lsam ham, hech bir g‘oya meni bunchalik hayajonga solmagan edi. O‘z sehrgarligidan bexabar bu ko‘zoynakli qorasoch bola tasviri ko‘z oldimda borgan sari yaqqolroq namoyon bo‘la boshladi. Afsuski, yonimda o‘sha paytda ruchkam yo‘q edi. Kelayotgan bu g‘oyalarni tezda qog‘ozga tushirmasam, balki ularning ancha-munchasini keyinroq unutib yuborishim mumkin edi. Shu kuniyoq, “Falsafa toshi”ni yozishni boshlab yubordim” [5, 150].

Rouling 1990-yilda onasining vafotidan so‘ng og‘ir ruhiy bosqichni boshdan kechiradi; bu davrdagi chuqur hissiy holati uning ijodiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yaqin insonni yo‘qotish azobini shaxsan boshidan o‘tkazgan muallif “Garri Potter va falsafa toshi” asarida bosh qahramon Garrining yo‘qotishlarini chuqur va ta’sirchan tarzda tasvirlaydi. Shu jihatdan, asarda ifodalangan yo‘qotish, iztirob va yolg‘izlik mavzulari muallifning shaxsiy hayotiy tajribalarini badiiy shaklda aks ettiradi.

1990-yillarning boshlarida Rouling “The Guardian” gazetasida chop etilgan e’lon orqali Portugaliyaning Porto shahriga ingliz tili o‘qituvchisi sifatida ishga boradi. Bu davr uning ijodiy faoliyatida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, u aynan shu yerda “Garri Potter va falsafa toshi” asarining dastlabki boblarini yozishni boshlaydi. “Kechki paytda o‘qituvchilik qilsa, kunduzlari badiiy asar yozishda davom etardi. O‘sha paytda u portugaliyalik jurnalist Jorj Arantes bilan tanishib, 1992-yilda u bilan turmush quradi. Oradan bir yil o‘tib, 1993-yil 27-iyulda qizlari Jessika Izabel Rouling Arantes dunyoga keldi” [5, 155]. Roulingning oilaviy hayoti barqaror kechmaydi va 1993-yilning noyabr oyida u turmush o‘rtog‘i bilan ajrashishga qaror qiladi. Shundan so‘ng u yangi tug‘ilgan qizi hamda “Garri Potter” romanining dastlabki uch bobini olib, Shotlandiyaning Edinburg shahrida yashovchi singlisining uyiga ko‘chib o‘tadi. Bu davr Rouling uchun moliyaviy va ruhiy jihatdan nihoyatda og‘ir bo‘lgan bo‘lsa-da, u keyinchalik ushbu holatni o‘zini muvaffaqiyatsizliklardan xalos qilgan, ijodga to‘liq bag‘ishlanish imkonini bergan davr sifatida yodga oladi: “Muvaffaqiyatsizligim aslida keraksiz narsalardan xalos bo‘lish davrim edi. O‘sha og‘ir paytdan boshlab men

o‘zimni aldashni bas qildim va endi bor kuchimni men uchun juda ahamiyatli bo‘lgan asarimni tugatishga sarflay boshladim. Agar o‘sha davrda boshqa sohada muvaffaqiyatga erishganimda, hozir aslida menga yoqadigan ish bilan shug‘ullanmayotgan bo‘lar edim. Men ozod bo‘lgandim, chunki men eng qo‘rqqan voqea allaqachon sodir bo‘lgandi. Ammo men haliyam tirik edim, menga kuch beradigan qizim, eski yozuv mashinkam va buyuk g‘oyam bor edi. Shunday qilib, muvaffaqiyatsizligim hayotimni yangidan qurishim uchun asos bo‘ldi” [4, 136].

Roulingning hayotidagi eng og‘ir davrlardan biri 1990-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Aynan shu davrda unga shifokorlar tomonidan klinik depressiya tashxisi qo‘yiladi. Yozuvchining o‘zi ham intervyularidan birida o‘sha paytda o‘z joniga qasd qilish fikri xayoliga kelganini ochiq tan oladi. Roulingning ruhiy tushkunlik holati keyinchalik “Garri Potter” asarida aks etgan obrazlarga ham ta’sir qiladi. Jumladan, u uchinchi kitobdagi ruh so‘ruvchi dementorlar g‘oyasi aynan o‘sha davrdagi depressiv holatini eslagan chog‘ida paydo bo‘lganini ta’kidlaydi.

Shunga qaramay, Rouling bu murakkab holatni yengib o‘tishga muvaffaq bo‘ladi. 1995-yilda u Edinburg universiteti huzuridagi Morey ta’lim markazida o‘qituvchilar tayyorlash kurslariga qatnay boshlaydi. Ammo bu vaqtga kelib ham u ijtimoiy yordam hisobidan yashar edi. “Garri Potter va falsafa toshi” asarini yozib tugatgach, u uni 12 ta nashriyotga yuboradi, biroq barchasi rad javobi beradi. Nihoyat, bir yil o‘tgach, Londondagi Bloomsbury nashriyotining muharriri Berri Kanninghem kitobni nashr etishga rozilik bildiradi. Ammo u Roulingga bolalar adabiyotidan katta daromad bo‘lmasligini eslatib, unga zaxira ish topishni maslahat beradi.

Ko‘p o‘tmay, 1997-yilda Shotlandiya san’at kengashi Roulingga asarni davom ettirish uchun 8 000 funt sterling miqdorida grant ajratadi. Shu yili, iyun oyida “Harry Potter and the Philosopher’s Stone” (“Garri Potter va falsafa toshi”) 1000 nusxada chop etiladi, shundan 500 tasi kutubxonalarga tarqatiladi. Noyabr oyida asar “Nestlé Smarties Book Prize” mukofotiga loyiq topiladi. 1998-yil boshida “British Book Award” va “Children’s Book Award” kabi nufuzli mukofotlarni qo‘lga kiritadi.

Xalqaro e’tirof esa 1998-yilda Scholastic Inc. nashriyoti tomonidan kitobning AQShda nashr etish huquqini 105 000 AQSh dollari evaziga sotib olgach boshlanadi. AQShda asar “Harry Potter and the Sorcerer’s Stone” nomi bilan chop etiladi. Dastlabki kitob muallifning to‘liq ismi – Joanna Rouling ostida nashr etilgan bo‘lsa-da, keyingi bosqichda nashriyot marketing nuqtayi nazaridan ayol mualliflar yozgan kitoblarga o‘smir o‘quvchilar, ayniqsa o‘g‘il bolalar kamroq qiziqishini inobatga olib, undan J.K. Rouling taxallusidan foydalanishni so‘raydi.

“Ikkinchi qism – “Harry Potter and the Chamber of Secrets” (“Garri Potter va maxfiy xona”) 1998-yil iyul oyida chop etiladi va yana “Nestlé Smarties Book Prize” mukofotiga sazovor bo‘ladi. 1999-yilda e’lon qilingan uchinchi qism – “Harry Potter and the Prisoner of Azkaban” (“Garri Potter va Azkaban mahbusi”) ham yuqoridagi

mukofotni qo‘lga kiritadi. Shu tariqa, Rouling bu mukofotni ketma-ket uch marta qo‘lga kiritgan birinchi yozuvchiga aylanadi.

“Seriya-dagi to‘rtinchi kitob – “Harry Potter and the Goblet of Fire” (“Garri Potter va olovli jom”) 2000-yil 8-iyulda Buyuk Britaniya va AQShda bir vaqtning o‘zida sotuvga chiqariladi. Bu kitob Buyuk Britaniyada birinchi kunning o‘zida 400 ming nusxada, AQShda esa 48 soat ichida 3 million nusxada sotiladi va shu orqali eng tez sotilgan kitoblar bo‘yicha rekord o‘rnatadi. Biroq Rouling to‘rtinchi kitobni yozish jarayonida ijodiy inqirozga uchraganini ham ochiq tan oladi” [8, 426]: “To‘rtinchi kitobning yarmiga kelganimda, syujetda jiddiy xatoga yo‘l qo‘yganimni angladim. Shunda bitta bobni o‘n uch marta qayta yozishimga ham to‘g‘ri kelgan. Biroq kitobni o‘qiganlar u aynan qaysi bob ekani va menga nechog‘lik qiyinchilik tug‘dirganini bilishmaydi” [6, 12]. J.K.Rouling “Harry Potter and the Goblet of Fire” (“Garri Potter va olovli jom”) asari uchun 2000-yilda British Book Awards tomonidan “Yil yozuvchisi” unvoni bilan taqdirlandi. Seriya-ni beshinchi qismi – “Harry Potter and the Order of the Phoenix” (“Garri Potter va Qaqnus ordeni”) esa oradan uch yil o‘tib, 2003-yilda nashr etildi.

Keyingi kitob, “Harry Potter and the Half-Blood Prince” (“Garri Potter va Shahzoda Tilsimi”) 2005-yil iyul oyida sotuvga chiqarilib, faqat birinchi kunida 9 million nusxada sotilishi bilan yana yangi savdo rekordini o‘rnatdi. Seriya-ni yakuniy qismi bo‘lgan “Harry Potter and the Deathly Hallows” (“Garri Potter va Ajal Tuhfalari”) 2007-yil 21-iyulda Buyuk Britaniya va AQShda bir vaqtning o‘zida chop etildi va bir kun ichida 11 million nusxada sotilib, avvalgi barcha rekordlarni yangiladi.

Shu tariqa, 1997-yilda boshlangan “Garri Potter” kitoblari seriyasi 2007-yilda o‘z yakuniga yetdi. Ayni paytda “Garri Potter” nafaqat adabiy hodisa, balki global miqyosdagi tijorat brendiga aylangan bo‘lib, uning umumiy qiymati 17 milliard AQSh dollari atrofida baholanmoqda. Seriya-ni so‘nggi to‘rt qismi esa dunyo miqyosida eng tez sotilgan kitoblar sifatida tarixga kirdi.

XX asr oxirlariga kelib, ingliz bolalar adabiyoti global ahamiyat kasb etdi. Bu davrda ingliz yozuvchilarining asarlari boshqa tillarga tarjima qilindi va butun dunyo bolalari o‘rtasida mashhur bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr ingliz bolalar adabiyoti nafaqat o‘zining badiiy saviyasi, balki bolalar uchun yaratilgan boy va xilma-xil olami bilan yangi bosqichga chiqdi.

Ingliz bolalar adabiyoti bolalarning ehtiyojlari va madaniy qadriyatlar o‘zgarishi bilan birga rivojlanib, ular uchun qiziqarli va ma’noli asarlar yaratishga intilish bugungi kunda ham davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allen W. The Urgent West: The American Dream and Modern – N.Y.: Dutton, 1969. – 284 p.
2. Briggs J., Butts D. Popular Children's literature in Britain. – London and New York: Published 2016 by Routledge. – 356 p.
3. Chase R. The American Novel and its Tradition. – Y.: Doubleday Co., 1976. – 316 p.
4. Feldman, Raxonne. The Truth about Harry. – School Library Journal, September 1999. – P. 136-139.
5. Howells W.D. My Mark Twain. – N.Y., 1974. – 128 p.
6. Johnstone, Anne. The hype surrounding the fourth Harry Potter book belies the fact that Joanne Rowling had some of her best moments writing it – and that the pressure was self-imposed kind of magic. – The Herald. July 8, 2000. – P. 140-145.
7. Loyer, Stephanie. All about Harry Potter from quidditch to the future of the Sorting Hat. – The Boston Globe. October 18, 1999. – P. 54-58.
8. Mamarasulova Sh. Angliya bolalar adabiyotining jahon sahnasiga chiqishida J.Roulingning hissi. "Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan" Journal volume 2, Issue 4, 2024. April. – p. 420-429.
9. Parker, Ian. Mugglemore. – The New Yorker. October 1, 2012. – P. 59-62.
10. Sattarov F.N. XIX asr Ingliz bolalar adabiyotining o'zbek bolalar adabiyotiga: Filol.fan.b.fals.dok. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2025. – 52 b.